



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022

IYUL

№42



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 42-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Abdullayeva Laylo Qadamboyevna	
MUHAMMADRIZO OGAIY VA UNING TARJIMA ASARLARI	7
2. Алмардонаева Дилсора Мажидовна	
“КҮРИНМАЙ ГУЛЛАГАН ШОИР” ШАФОАТ РАҲМАТУЛЛО ТЕРМИЗИЙ	9
3. Djumaniyazova Surayyo Yaxshimuratovna	
O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN ESSELAR HAQIDA MULOHAZALAR.....	11



АДАБИЁТ

MUHAMMADRIZO OGAIHY VA UNING TARJIMA ASARLARI

Abdullayeva Laylo Qadamboyevna
Xorazm viloyati Yangiariq tumani
2-son kasb-hunar maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammadrizo Ogahiyning hayoti va ijodi haqida, uning tarjimonligi va tarjima asarlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, asar, Ta'viz ul oshiqin, shoir, tarjimon, ijod, nasr, nazm.
Tarjima adabiyoti tarixini o'rghanish adabiy-madaniy aloqalar tarixini, xalqlar do'stligi va hamkorligi tarixini yoritishga, o'zaro adabiy ta'sir formalari, adabiy an'ana va unga munosabat masalalarini oydinlashtirishga yordam beradi. Tarjima durdonalari haqida gap ketar ekan, ko'z oldimizga, avvalo, o'zbek xalqining ezgu niyatli, jafokash ma'rifatparvar farzandlari-istedodli tarjimonlar keladi. Jumladan Haydar Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Xomushiy, Muxammad Temur, Munis, Dilovarxo'ja, Komil Xorazmiy, Bayoni, Almai kabi mohir tarjimonlar yashab o'tgan. Ularning har biri juda ko'plab badiiy ilmiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, qutlug' xizmat qilganlar.

Mashhurligiga ko'ra, uch toifa shoirlar bor. Birinchisi hayot davrida mashhur bo'lib, keyin unutilgan. Ikkinchisi hayotligida nomi chiqmasa-da, vafotidan so'ng dovrug' qozongan. Uchinchisi foniy hayotidayoq boqiy nom qozongan. Muhammadrizo Ogahiy (1809 – 1874) so'nggi toifaga mansub shoirdir. Xiva xonligi davrida turkiy tilda eng ko'p bitilgan nazmiy va nasriy asarlarning muallifi, Turkiy til tarjimonlik maktabining Zahiriddin Muhammad Bobur lafzi bilan aytganda "eng ko'b va eng xo'b" ijodkori va peshqadami edi.

Xalq xizmatini qozongan zukko shoir va tarixnavis, usta tarjimon Ogahiy o'zining barakali ijodiy faoliyati davomida yigirmaga yaqin badiiy, axloqiy, tarixiy asarlarni fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bular orasida Nizomiy, Dehlaviy, Sa'diy, Jomiy kabi dunyoga nomi ketgan hind, ozarboyjon, fors-tojik adabiyoti vakillarining eng yaxshi asarlari borki, bular Ogahiy qalami orqali o'zlarining o'zbek tilidagi yangi hayotiga musharraf bo'lib, xalqimizning sevimli kitoblariga aylanib qoldi. Ogahiy tarjimonlik faoliyatidagi yuksak martaba, bir tomondan, uning shaxsiy qobiliyati bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, davr madaniy hayotining xususiyati, Xorazmda tarjimachilik ishining yuqori saviyadagi umumiy darajasi bilan ham belgilanadi.

Ogahiy tarjima ishini 1848-yilda "Ravzat us safo" ning ikkinchi jiddlarini tarjima qilish bilan boshlab, umrining oxirigacha bu ish bilan muntazam shug'ullangan. Shoir tarjimalari haqida ma'lumot uning "Ta'viz ul oshiqin" (Oshiqlar tumorı) devoni va tarjimalari qo'lyozmalarning kirish qismidan olingan. "Ta'viz ul oshiqin" Sayyid Muxammadxon hukmronligi davrida, uning shogirdi, taxt vorisi Muhammad Rahim II – Feruz (1864-1910) farmoniga ko'ra tuzilgan. Devon 810 ta forsiy va turkiy she'r – 18000 misradan tarkib topgan. Ogahiy o'zbek elining qiyot urug'idan bo'lib, uning hayotida Shermuhammad Munis katta rol o'ynagan. Birinchi navbatda, shoir devonida yoshlik chog'idan ilmg'a chanqoqligini, shoiru olimlar davrasida bo'lishga intilganini yozgan. U maktabni tugatgandan so'ng, madrasanishinlik, zamonaviy til bilan aytganda Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirib, ilm olishni davom ettirganini yozadi. Ogahiy odatdagи 7-8, 10-11 yoki 12-13 baytlik g'azallar yozish tartibini buzib, mazmun talabi bilan 20 baytlik va 23 baytlik g'azallar yozdi. Rahnamosi, maslakdoshi, shogirdining – davr hukmdorlari bo'lgani, ularga so'z qadrini bildira olgani, turkiy nazmni davlat siyosati darajasiga ko'targani sohibiqalamning katta yutug'idir. Ogahiy Xiva xonligi Qo'ng'irotlar sulolasining fors tilidan turkiy tilga tarjima qiluvchi tarjimonlar maktabining peshqadami edi. Uning tarjimonlik faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u ijodining ilk yillarda fors tilidan tarixiy asarlarni tarjima qilishdan boshlagan va mahorati oshib borgan sayin badiiy asarlarni nazmdan nazmga o'girgan.



Muhammadrizo Ogahiyning tarjimon ekani haqidagi ilk ma'lumot vengriyalik olim Armen Vamberi (1832-1913) tadqiqotida keltirilgan. Armen Vamberi Xorazmda she'riyatga bo'lgan katta qiziqish to'g'risida gapira turib, shunday yozadi: "Xivada men ikki aka-uka bilan tanishdim. Biri Munis bo'lib, u ajoyib she'rilar yozgan; men ularning ayrimlarini keyinchalik nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob. U ulkan sabr bilan Mirxondning katta tarixiy asarini o'g'li uchun, garchi o'g'lining o'zi ham fors tilidan xabardor bo'lsa-da, o'zbek-turkiy lahjasiga o'girmoqda. Bu ish 20 yil davom etgan, lekin u buni biron kimsa oldida e'tirof etishdan uyalardi, zero diniy ilmlardan boshqasi bilan shug'ullanish yuzakichilik hisoblanadi". Ushbu iqtibosda keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, Ogahiy Mirxondning "Ravzat al-safo" asarini ko'p yillar davomida tarjima qilgan va boshqa tarjimonlarga ham bosh-qosh bo'lgan.

Ogahiy "Ta'vizul oshiqin" devoni debochasida o'z tarjima asarlarini birma-bir ko'rsatib o'tgan: "Faqrining turkiy tili birla tarjima qilgan kitoblari: "Ravzat us-safo"ning ikkinchi daftaridin chaxor eri izomning voqeasi, uchlanchi daftari va "Nodirnom" va "Zubdatul-hikoet" va "Iftoxut-tolibin" va "Axloqi Muxsiniy" va "Vasfiy" va "Nasihatnom"i Kaykovus va "Salamonu Absol"i, Jomiy va "Guliston"i Sa'diy va "Bahoriston" Jomiy va "Ravzat us-safo"i Nosiriyning birinchi daftari va "Daloyil ul-hayrat" shahrikim, rum turkiysidan chig'atoy tiliga o'kazildi va "Tazkirai Muqimxoniy" va "Taqoboti Akbarshohiy" va "Haft paykar"i Nizomiy va «Hisht bishtsi»i Xisravyi va «Yusuf-Zulayho»i Jomiykim, manzum bo'ldi va «Shohu Gado»i Hiloliykim manzum bo'ldi. Bu tarjimalarning 9 tasi badiiy, 6 tasi tarixiy, 4 tasi axloqiy yoki falsafiy -axloqiy asarlardir.

Turli davrlarda yaratilgan, har xil g'oya va uslubdagi shuncha asarni XIX asr o'zbek kitobxoni talabiga moslab o'girish tarjimondan benihoya kuchli shoirlik talanti, keng va chuqur bilim va eng muhimmi, ikki til xususiyatlarini mukammal bilishni talab etardi. Ogahiy bu talablarning barchasiga javob beruvchi har tomonlama yetuk shaxs bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy tarjima qilgan adiblar "...mazkur asarlar bilan tarix va adabiyot xazinalariga qanchalik katta hissa qo'shan bo'lsalar, Ogahiy o'z xalqini fors-tojik va ozarboyjon klassiklarining boy merosidan bahramand qilish niyatida ularning asarlarini o'zbekchaga tarjima qilib, o'zbek madaniyati rivojiga shunchalik hissa qo'shdi". Ogahiy jami 19 ta asarni nasrda, nazmda, ba'zan nasr va nazm aralash o'zbek tiliga tarjima etdi, bu sohada o'ziga xos uslub, maktab yarattdi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. <https://ogahiy.tsuos.uz>
2. R.Majidiy. Ogahiy lirikasi.-Toshkent:1961
3. N.Karimov.Ogahiyning tarjimonlik mahorati.-Toshkent:1970
4. T.Matyoqubova.Ogahiy she'riyatida an'anaviy obrazlar talqini.-Toshkent:2001



“КЎРИНМАЙ ГУЛЛАГАН ШОИР” ШАФОАТ РАҲМАТУЛЛО ТЕРМИЗИЙ

Алмардонова Дилсора Мажидовна
Сурхондарё вилояти Термиз тумани
1-мактабнинг директори
Тел: +998936333619
DilsoraAlmardonova@gmail.com

Аннотация: Ушбу тезисда Сурхондарё элининг забардастетук шоирларидан бири Шафоат Раҳматулло Термизийнинг ҳаёти, болалик чоғлари, шеърларидан ва асарлари ҳақида қисқача маълумот беришга ҳаракат қилганман.

Калит сўзлар: шоир, бахши, воҳаси, ижод, болалик, ака, фронт, консерватория, китоб, университет, устоз, дўст.

Биламизки, Сурхон воҳаси элимизга машҳур бўлган кўплаб бахшилар ва шоирларни етказиб берган. Ушбу ижодкорларнинг кўплари пойтахтда туриб ижод қилишиб, халқимизга хизмат қилганлиги маълум. Аммо, Сурхондарё вилоятининг ўзида ижод қила туриб, бутун Ўзбекистондаги ижодга ихлосманд инсонларнинг қалибдан жой ола олган шоир, ўзининг таъбири билан айтганда “кўринмай гуллаган шоир” бу Шафоат Раҳматулло Термизийдир. Шафоат Раҳматулло Термизий 1942-йил 10-майдага Шерабод тумани “Оқкўргон” қишлоғида таваллуд топган. Шоир болалик йилларини шундай эслайди, - ”-Онам бечоранинг айтишича илон йилда туғилган эканман. Уруш, қаҳатчилик, икки акам фронтга кетишган. Нон азиз паллалар эди. Оиламизда бахшилилка қизиқиши зўр эди. Акаларим Бобақул Раҳматулла ўғли ва кичик акам Чоршам бахши Раҳматулла ўғли муштдайлигидан дўмбирага меҳр бериб, катта бахшилар оғзига тушиб, тезда танилиб кетди.” – дея хотирлайди шоир болалик йилларини. Шафоат Раҳматулло Термизий ўзининг ижодини, асосан ҳарбий хизматдан келган сўнг бошлаган. 1965-йилда Тошкент давлат консерваториясини тамомлаган ва илк иш фаолиятини Термиз давлат университетида бошлаб, умрининг сўнги кунига қадар ушбу даргоҳда талабаларга мусиқа илмидан таълим бериб келган. Биринчи китоби “Жануб шамоли” 1981-йил F.Улом нашриётида чоп этилади. Кўп йиллар давомида шоирнинг “Умид остонаси”, “Озод сўз”, “Кўринмай гулладим”, “Шоҳ ва шоир” сингари китоблари нашр қилинган. Мусиқа илмига оид бир қатор асарлар ҳам ёзига қолдирган. Шоир бир сўз билан айтганда, ҳақиқий, камтар инсон эди. Машҳур туюқ жанрида ёзилган шеърларидан бирида шундай деган эди:

Сиртимга қараб сиз чиқарманг ҳукм

Билмасдан дилмда нималар ҳоким.

Даврада вақат деган бир донишманд бор

У ҳали айтади сиз ким – у мен ким.

Шафоат Раҳматулло Термизий ижодга энди кириб келган вақтларидаёқ кўплаб адабиётимизда ўз ўрнига эга машҳур шоирлар назарига тушади. Шундай шоирлардан бири Саид Аҳмаддир. Саид Аҳмаднинг турмуш ўртоғи Саида Зуннунова эса 1975-йил май ойида “Ўзбекистон маданияти” газетасида Шафоат Раҳматулло Термизийга “Оқ йўл” тилайди. Шафоат Раҳматулло Термизийнинг яқин шоир дўстлари кўп эди. Улардан Абдулла Орипов, Усмоз Азим, Сирожиддин Сайид, Ҳуршид Давронларни ва яна кўплаб дўстлари ва шогирларини мисол келтириш мумкин. Шафоат Раҳматулло Термизий ҳукуматимиз томонидан 1998-йилда “Шуҳрат” медали, 2003-йилда “Эл – юрт хурмати” ордени билан тағдирланди. Шоир умрининг охиригача ўзини адабиётга бағишилади. Энг муҳими ўзининг бетакрор шеърлари билан адабиётимиздан ўчмас из қолдирди. Агар, шоир ҳаёт бўлганида бугун 80 ёшни қаршилаган бўлар эди. Шоир Шафоат Раҳматулло Термизий 2016-йил бу ёруғ оламни тарк этди.



Ўтар дунё, ўтди дўст-у ғайир ўтди
Арбоб, ориф, ошиқ, Зухра, Тойир ўтди.
Давронини ёқлар ўтди, койир ўтди
Бани башар замонига доир ўтди
Ўтарингни ўтаргача қайир ўтди
О ўтди-я, бу оламдан шоир ўтди.

Фойдаланган адабиётлар:

1. “Озод сўз”(2003, сайланма).
2. “Кўринмай гулладим”.
3. Хуршид Даврон интернет кутубхонаси.



O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN ESSELAR HAQIDA MULOHAZALAR

Djumaniyazova Surayyo Yaxshimuratovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
15-son mакtabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida Said Ahmad va Mirtemir ijodida yaratilgan adabiy-tanqidiy esselar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar:esse, janr, adabiy-tanqidiy, Said Ahmad, Mirtemir, xotira, she'r, so'z.

Esse o'zbek adabiyotida falsafiy-estetik, tarixiy-biografik, badiiy-publitsistik, diniy, ilmiy-ommabop xarakterga ega bo'lib, sof va sinkretik janr sifatida shakllandi. Esse adabiy janr sifatida muallifning shaxsiy mulohaza va taassurotlari asosiga qurilgan, erkin kompozitsiyali, kitobxon bilan erkin suhabatga asoslangan nasriy ijod namunasidir. Esse adabiy, ilmiy, publitsistik janrlarga birdek aralashadi. O'zbek adabiyotida esse janrining tarixiy, biografik, ocherk, xotira, ilmiy mulohazalik, shaxsiy kechinma unsurlarini mumtoz adabiyotimiz namunalaridan topish mumkin.

Said Ahmad “Yo'qotganlarim va topganlarim” nomli esse-xotirasining “Yo'qotganlarim” qismida vafot etib ketgan Oybek, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Shuhrat, Saida Zunnunova, Asqad Muxtor, Turob To'la, O'lmas Umarbekov kabi ustoz-adiblar, tengdosh-ijodkorlar haqidagi xotiralarini kitobxon bilan baham ko'radi. “Topganlarim” qismida esa o'zidan keyingi avlod vakillari – O'tkir Hoshimov, Ne'mat Aminov, To'g'ay Murod, Nosir Fozilov, Maqsud Qoriyev, To'lan Nirom kabi ijodkorlar to'g'risidagi adabiy o'ylarini o'rtoqlashadi.

Esse-xotiralarni birlashtiruvchi yagona mushtaraklik, bu – so'z san'atkorlarning ijodiy va insoniy qiyofasi, shaxsiyatlarning real voqelik zamirida ochilishida ko'rindi. Muhimi, xotiralar muallifi bevosita voqealar ishtirokchisi, jonli guvohi sifatida fakt va hodisalarga xolisona baho beradi. Muallif ijodkorlar ma`naviyatini gavdalantirish orqali millat dardi-iztiroblarini, davr jarohatlarini hayotiy manzaralarda realistik uslubda ochib bergen. Asarda har bir ijodkor xarakteri, taqdiri, dunyoqarashi va fojealari ochiladi. Ular Said Ahmadga adabiyot olamida o'z-o'zini topishda qattiqko'llik va bag'rikenglik bilan mehribon ota, betakror ustoz bo'lib rahnamolik qilgan. Adiblarning biridan hajvga moyillikni, ikkinchisidan teran falsafani, yana boshqasidan so'zga talabchanlikni o'rganadi. Har uchchala “Yo'qotganlarim va topganlarim”, “Chorak asr hamnafas”, “Oybegin mening” asarlaridagi maktublarni mazmun mohiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin: 1) Suhbat; 2) turli safarlar; 3) xotira kabi.

Said Ahmadning “Nazm chorrahasida” esdalik essesi nafaqat ilmiy-badiiy tafakkur rivojida, shu bilan barobar adabiyotshunoslik tarixini yaratishda ham muhim o'rinni tutadi. Said Ahmadning “Nazm chorrahasida” xotira lavhalari G'.G'ulomning she'riyatimiz tarixini yaratuvchi asarlarining badiiy g'oya sifatida tug'ilishi, yozilishi jarayoni bilan bog'liq ijodiy laboratoriyasini ochishga xizmat qiladi. Asarning o'ziga xosligi shundaki, u ilmiy-hujjatli memuaristikamizga xotira hikoya shaklini olib kirdi.

80-yillarda atoqli san'atkorlarimizning adabiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan esselari “Yozuvchi va davr”, “Adabiy o'ylar” turkumlarida ko'plab nashr etilmoqda. Bu turkumdag'i nashrlarda yirik san'atkorlarimizning shaxsiyati, ijodiy tabiat, badiiy adabiyot va adabiy mehnat haqidagi, adabiy jarayon hamda milliy madaniyatimiz xazinasini boyitgan barkamol asarlarning ijodiy g'oya sifatidagi tug'ilishi, yozilishi jarayoni, ijtimoiy-estetik ta'sir kuchi bilan bog'liq g'oyat qimmatli fikr-o'ylari keng o'rinni oladi. Bu kabi hodisalar o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida alohida bir yorqin sahifani tashkil etadi. Ushbu hodisa kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Uning ildizlari ming yillik adabiyotimiz tarixiga borib tutashadi, undan hayot suvini ichadi.

Ustoz Mirtemirning “Tingla, hayot” (1974), “Do'star davrasida”(1980) majmualari turli davrlarda yaratilgan. Lekin, keyingi yillarga kelibgina, xususan, 70-80-yillarda muxtasar bir yaxlitlikda chop etildi. Ular shoirning ijoddan, qaynoq she'r ilhomlaridan bir dam tiniqqan, bir zumgina bo'shagan daqiqalarida emas, aynan shu ehtirosli ijodiy xayollari jo'sh urgan bir paytda yozilganligini payqaymiz. Mirtemir esselari ana shunday laziz daqiqalarning mahsulidir, ijtimoiy-ma'naviy zarurat bilan yuzaga kelgan hodisalardir.

She'r zimmasidagi ustuvor vazifalar Mirtemir esselarining asosini tashkil etadi. She'r nafaqat insonlar qalbiga, ongiga, shuuriga ham yorug'lik olib kiradi. U o'z she'rlarini nur dunyosida nur bo'lib qolishini istaydi. Mirtemir “Ulkan zamonga ulkan she'riyat” esesida barkamol she'r



timollar sistemasidan dunyoga kelishini alohida ta'kidlab o'tadi, shoirning ushbu estetik qarashi "Daho" maqolasida yanada kuchaytiriladi.

Mirtemirning birgina poetik mahorat masalasini tushunishi va tushuntirishdagi nuqtai nazari nechog'lik ko`lamdorligidan beixtiyor hayratlanasan. Eng muhimi, adib she`riy mahorat maktabini hayot maktabi bilan uzviy aloqadorlikda ko`radi. Uning adabiy-tanqidiy qarashlarining mag`zi "Olimjon Xoldorga maslahatlarim", "Yoshlar haqida ikki og`iz so`z", "O`nta bo`lsa-da o`rni bo`lak", "Urgut va burgut", "Tong kuychisi", "Ulkan shoir" singari ko`pgina esselariga singdirib yuborilgan. Shoir esselaridan shoirning hamda she`riyatning ijtimoiy hayotdagi, odamlar turmushidagi o`rni va ahamiyatiga doir falsafiy mushohadalar yorqin shu`la sochib turadi. Mirtemirning adabiy o`ylari, avvalo, padari buzruk vorning mehr to`la samimiyyat ila balqqon nigohini, o`git-suhbatlarini eslatadi. Keng o`quvchilar ommasi shoir esselarini, adabiy-tanqidiy maqolalarini maxsus ilmiy-nazariy tadqiqot yo`nalishidagi kuzatishlar sifatida emas, shoirning falsafiy teran, sertimsol, fikrchan lirikasining nasrga ko`chib o`tgan esselar sifatida qabul qilib oladi.

70-80-yillarda maydonga kelgan Mirtemir, Zulfiya, Shukrullo, A.Muxtor, R.Fayziy, P.Qodirov, O.Yoqubov va boshqa san`atkorlarning esselarini ko`zdan kechirish, ular masalaning tanlanishi va yaratilishidagi tafakkur tarziga, uslublarining rang-barangligiga, axloqiy, falsafiy, ijtimoiy umumlashmalar mohiyatiga ko`ra bir-biridan farqlanib turishi shundoqqina ko`zga ko`rinadi. Ularning mushtarakligini ta`minlab turgan omil ham bor. Bu – muqaddas ona yurt va xalq oldidagi mas`uliyatidir. Bu – so`z san`ati va ma`naviy madaniyatimizning o`ziga xos betakror jihatlarini muayyan ilmiy-nazariy masalalar atrofida yoritish majburiyatidir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.Xolmirzayev. Esselar. 4 томлик, 4-том – Toshkent.: Sharq, 2008.
2. M.Qo`chqorova. Esse janri haqida // O`zbek tili va adabiyoti.
3. Mirtemir. "Do`sstar davrasida". Toshkent.: 1980.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-КИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000